

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.77.067(575.1)

SAIDOV JASURBEK LATIPBAYEVICH

**BANK SOHASIDA RISKLARNI BAHOLASH ASOSIDA XIZMATLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DISSERTATSIYASI

**Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent.
Kurbanov Xayrilla Abdurasulovich**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB BANK SOHASIDA RISKLARNI BAHOLASH ASOSIDA XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	13
1.1. Bank faoliyatida risklarni boshqarishda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning nazariy asoslari.....	13
1.2. Bank sohasida risklarni boshqarishning huquqiy asoslari.....	25
1.3. Iqtisodiy islohotlar sharoitida bank faoliyatida risklarni boshqarishning xalqaro tajribasi	35
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	45
II BOB BANK SOHASIDA XAVFNI BAHOLASH ASOSIDA XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH TAHLILI.....	46
2.1. Markaziy bank faoliyatida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish tahlili.....	46
2.2. Mikrokreditbank faoliyatida risklarni baholash tahlili.....	67
2.3. Agrobank ATB faoliyatida risklarni baholash va bank foizli daromadlariga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	76
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	95
III BOB BANK SOHASIDA RISKLARNI BAHOLASH ORQALI XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	98
3.1. Bank faoliyatida risklarni baholash yordamida xizmatlar samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	98
3.2. Iqtisodiy transformatsiyaning bank risklarni baholashda xizmatlar samaradorligini takomillashtirish imkoniyatlari.....	111
3.3. Bank xizmatlari samaradorligini oshirish orqali daromadlarning istiqbolli prognoz ko'rsatkichlarini baholash.....	118
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	126
XULOSA.....	128
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	131
ILOVA.....	140

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida so‘nggi yillarda bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shunday qilib, “agar Germaniya va AQSHda kredit qo‘yilmalarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning ulushi 5-6% bo‘lsa, Rossiyada 90-yillarda u 30-35% ga yetdi”¹. Zamonaviy risk-modellar, avtomatlashtirilgan tahlil platformalari va prognozlash algoritmlaridan foydalanish bank operatsiyalarining aniqligi va tezkorligini ta’minlab, investitsiya muhitini yaxshilaydi va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Shu tariqa, xizmat samaradorligining ortishi banklar orqali transmissiya mexanizmlari samaradorligini kuchaytiradi hamda umumiy iqtisodiy o‘sish jarayonini tezlashtiradi.

Jahonda bank sohasida risklarni baholash asosida xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosan sun’iy intellekt va mashinali o‘rganishga asoslangan risk-menejment platformalarini rivojlantirish, dinamik stress-testlar va ssenariyli tahlillar orqali xavflarni oldindan bashorat qilish, kiberxavfsizlik va operatsion risklarni kompleks baholash usullarini takomillashtirish hamda risklar va samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni matematik modellashtirishga yo‘naltirilgan. Xalqaro amaliyotda iqtisodiy islohotlar sharoitida bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirishning samarali usullarini joriy etish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda “bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va risklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli

¹ Ильченко Константин Михайлович “Совершенствование системы управления рисками в деятельности региональных банков” (<http://www.dslib.net/finansy/sovershenstvovanie-sistemy-upravleniya-riskami-rossijskih-kommercheskih-bankov-v.html>).

muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda"². Shu bilan birga, "iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohaslarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish"³ muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Ushbu vazifani samarali amalga oshirish jarayonida bank sohasining natijadorligini oshirish, faoliyatning tahlil mexanizmlarini takomillashtirish hamda bank sohasidagi mavjud risklarni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"⁴, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son⁵ "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"⁶gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 14-iyundagi 14/5-son "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"⁷, 2015-yil 6-iyuldagi 14/3–sonli "Tijorat banklari kapitali mosligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"⁸gi nizomlari, 2021-yil 19-noyabrdagi 27/7-son "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi"⁹ to'g'risidagi nizomga

² "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, 14.07.2015 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2696.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, 06.07.2015 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2693.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining «Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qarori, 27.02.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2693-12.

kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar" to'g'risida¹⁰”, 2024 -il 7 -evraldagi 2709-6-son “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”¹¹, 2025 -il 21 -apreldagi 2693-13-son “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi¹²¹³ qarorlari hamda mazkur sohaga oid tegishli bo'lgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan V.V.Jarikov, V.Ye.Leontiyev, O.I.Lavrushin, J.P.Morgan, V.M.Granaturov, Yu.V.Mishalchenko, I.O.Kroli, I.T.Aven, C.Spikin, M.A.Bilal, T.Ilina, L.O.Prymostka, O.V.Lysenok, O.O.Chub, B.Tusupbaeva, I.A.Blank, V.M.Hranaturov, I.V.Lytovchenko, va S.K.Kharichkov¹⁴lar tadqiqotlar olib

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “ijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qarori, 10.12.2021 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2696-3.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qarori, 07.02.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2709-6.

¹² <https://lex.uz/>

¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” qarori, 21.04.2025 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2693-13.

¹⁴ B.B. Жариков, М.В. Жарикова, А.И. Евсейчев “Управление кредитными рисками”: учебное пособие /. – Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2009. – 244 с.; В.Е.Леонтиев “К вопросу о сущности и классификации банковских рисков” УПРАВЛЕНИЕЦ № 1/47/2014. 26-35 стр.; Лаврушин О.И. Банковское дело. М.: КноРус. 2014. 800 с.; Гранатуров В.М. Экономический риск. Сущность, методы измерения, пути снижения. М.: Дело и сервис, 2010, 208 с.; Мишальченко Ю.В., Кроли И.О. Риски в международной банковской деятельности // Бухгалтерия и банки. 1996. № 3. С. 17.; Terje Aven “Risk assessment and risk management: Review of recent advances on their foundation”, European Journal of Operational Research, Volume 253, Issue 1, 16 August 2016, Pages 1-13.; Ignacio Cienfuegos Spikin “Risk Management theory: the integrated perspective and its application in the public sector”, Estado, Gobierno, Gestión Pública, ISSN 0717-6759, N°21 (2013) pp. 89 / 126.; Prymostka, L. O., Lysenok, O. V., & Chub, O. O. (Ed.). (2008). Bankivski ryzyky: teoriia i praktika upravlinnia [Banking risks: theory and practice of management].; Russel J., Morgan J.P. M.: Книга потребованию, 2012. 134 с.; Muhammad

borishgan.

MDX davlatlarida Yu.M.Voronin, T.Ilina, B.Tusupbaeva, O.Kyrychenko, I.Hilenko, A.Yatchenko, V.V.Vitlinskyi, H.I.Velykoivanenko, V.Shpandaruk V.S.Zaxarov hamda T.N.Kalininalar¹⁵ alohida olingan bank sohasida risklarni baholashning nazariy jihatlarini bo'yicha ishlar olib borganlar.

O'zbekistonlik olimlaridan S.S.Togayev, O.A.Ortiqov, I.Ya.Qulliev, S.Abdullaeva, B.E.Mamajonov, J.Y.Isakov, Z.Dj.Adilova, B.A.Xonto'rayev, Sh.Hamroev¹⁶ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida bank sohasida risklarni baholash muammolari yoritilgan. Mamlakatimizda bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha D.A.Toshpulatov, M.Q.Maxmudova, D.B.Nafasov, O.S.Zuriddinova¹⁷ kabi olimlarning ishlarida ko'rish mumkin.

Taklif etilgan tadqiqot ishlarida bank risklarni baholashning noaniqlik, xatarlilik, risk chegaralari keltirilgan bo'lib, risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish holatlarini ko'p ham hisobga olinmagan. Ushbu ishda

Asadullah Bilal "Risk Management. A comparative study of regulations and practices in one conventional and one Islamic bank in Pakistan", 2019.; Т.Ильина, Б.Тусупбаева «О классификации банковских рисков»/Общество и экономика, 9, 2018.; Бланк І.А. Фінансовий менеджмент: навчальний курс. Київ: Ельга, Ника-Центр, 2013.; Hranaturov V. M., Lytovchenko I. V., & Kharichkov S. K. (2003). Analiz pidpriyemnytskykh ryzykiv: problem vyznachennia, klasyfikatsii ta kilkisnoi otsinky [Analysis of business risks: problems of definition, classification and quantification]. Odesa.

¹⁵ Воронин Ю.М. Воронин Ю.М. Управление банковскими рисками. М.: НОРМА, 2007. С. 35.; Т.Ильина, Б.Тусупбаева «О классификации банковских рисков»/Общество и экономика, 9, 2018.; Kyrychenko, O., Hilenko, I., & Yatchenko, A. (1999). Bankivskyi menedzhment [Banking management]. Kyiv: Osnovy.; Калинина Т.Н., Калинина Ю.В. Теория рисков коммерческих банков: учеб. пособие. Екатеринбург: Изд-во УрГЭУ, 2002. С. 14; Vitlinskyi V.V., & Velykoivanenko H. I. (2004). Ryzykologhiia v ekonomitsi ta pidpriyemnytstvi [Riskology in economics and entrepreneurship]. Kyiv: KNEU.; Shpandaruk, V. (2010). Vdoskonalennia upravlinnia ryzykamy pidpriyemstv na zasadakh realizatsii preventyvnykh zakhodiv [Improving the risk management of enterprises on the basis of preventive measures]. Visnyk Khmelnytskoho natsionalnoho universytetu. Ekonomichni nauky — Bulletin of Khmelnytsky National University. Economic sciences, 3 (1), 241-244.

¹⁶S.S.Togayev. Bank risklari. O'quv qo'llanma. SamISI. Samarqand 2019 y. 222-bet.; "Bank menejmenti va marketingi" [Matn] : o'quv qo'llanma/ O. Ortiqov [va boshq.j. — Toshkent.: 'Tafakkur Bo'stoni", 2015.- 224 b.; S. Abdullaeva & S. Abdullaev, (2023). "Bank risklarini baholash usullarini takomillashtirish". Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 205–207.; B.E.Mamajonov "Investitsion kreditlash faoliyatida kredit riskini samarali boshqarishni takomillashtirish" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Volume 1/Issue 4, SJIF 2021.; J.Y.Isakov, Z.Dj.Adilova, B.A. Xonto'rayev «BANK RISKLARI»/ O'quv qo'llanma. — T.:«IQTISODIYOT», 2020y. — 272b.; Sh.Hamroev "Bank risklarini oldini olish va minimallashtirish masalalari" "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5.

¹⁷ M.Q.Maxmudova "Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish usullarini takomillashtirish" Avtoreferat, Elektron resurs, 2020 yil.; D.A.Toshpulatov "Bank risklarini risk appetiti va risk profili orqali baholash hamda boshqarish" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil; D.B.Nafasov "Bank risklarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil; O.S. Zuriddinova "O'zbekistonda bank xizmatlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari" Scientific Progress, Volume 3/ISSUE 1/2022.

muallif tomonidan taklif etilayotgan jarayonlar bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1-sonli "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzu loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish yo'nalishlarini tadqiq etish asosida ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bank tizimidagi xavf-xatarlarni boshqarish konsepsiyasi hamda uning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinib, boshqaruv mexanizmlarining bank xizmatlari samaradorligiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy asosda tadqiq etish;

bank sektori faoliyatida mavjud xavf-xatarlarni baholash mexanizmlarining moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishdagi funksional ahamiyati hamda ularning me'yoriy-huquqiy bazasini kompleks tahlil qilish;

bank risklarini tartibga solish sohasidagi xalqaro yondashuvlar va standartlar ilmiy asosda o'rganilib, ularning amaliy ahamiyatini o'rganish;

bank sohasida risklarni baholash mexanizmlari yordamida xizmatlar samaradorligini oshirish jarayoni ilmiy asosda tahlil qilish;

bank sohasida risklarni baholash mexanizmlari yordamida xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ilmiy jihatdan tadqiq etish;

iqtisodiy transformatsiya jarayonida bank sohasida risklarni baholash mexanizmlari yordamida xizmatlar samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy asosda aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida tijorat banklari faoliyatida yuzaga keluvchi xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish orqali bank xizmatlarining sifati hamda

samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar va mexanizmlar tizimli ravishda o'rganilgan.

Tadqiqot predmeti sifatida tijorat banklarining faoliyatida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish jarayonlariga taalluqli tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar o'rganiladi. Xususan, bank ichidagi risklarni boshqarish tizimlari bilan xizmatlar sifatini yaxshilash uchun zarur iqtisodiy mexanizmlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan munosabatlardir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida muammolarni kompleks ravishda o'rganish va solishtirish jarayonlari, statistika ko'rsatkichlarini tahlil qilish, umumlashtirish va kelajakdagi tendensiyalarni aniqlash va prognoz qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "bank risklarini boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni risklarni aniqlash, baholash, tahlil qilish, cheklash va nazorat qilish mexanizmlarining bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan majmui sifatida tavsiflangan jarayon bo'lib bankning moliyaviy barqarorligini va likvidligini ta'minlashga, shuningdek, uning faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni oldini olish yoki minimallashtirish maqsadida amalga oshiriladi oshiriladigan tizimli jarayon nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

bankning risk-appetit hujjatida tavakkalchilik darajalari "past daraja" ($0 < RDp \leq 20$), "o'rta daraja" ($21 \leq RDo \leq 50$) va "yuqori daraja" ($RDyu \geq 51$) guruhlariga bo'lingan bo'lib, bu orqali risklarni baholashning aniqligini oshirish asoslangan;

bankda mavjud yoki yuzaga kelishi kutilgan tavakkalchiliklar, jumladan kredit, likvidlik, bozor va operatsiya tavakkalchiliklari bo'yicha ularni kamaytirish bo'yicha hisobotlarni Kuzatuv kengashi va tavakkaliliklarni boshqarish qo'mitasiga har chorakda, bank boshqaruviga esa har oyda kamida bir marta taqdim etish tartibini joriy etish orqali bank faoliyatidagi xizmatlar jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan taklifi asoslangan;

“Agrobank” ATBning asosiy ko‘rsatkichlari hamda davlat kreditlari portfeli dasturlari bo‘yicha regressiya tahlili asosida bank xizmatlari samaradorligini oshirishning 2027 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bankning risk-appetit hujjatida tavakkalchilik darajalarini risk-appetitga muvofiqligini baholash asoslab berilgan;

bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish, sezilarli tavakkalchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni kamaytirishni ta‘minlash zarurligini asoslab berilgan;

bank faoliyatida xizmatlar sohasidagi jarayonning samaradorligini oshirishda bankda yuzaga kelishi kutilgan tavakkalchiliklar hamda ularni kamaytirish yuzasidan hisobotlarni kiritish borasidagi joriy etish asoslab berilgan;

bankning yangi mahsulotlarini joriy qilish bilan bog‘liq komplaensni joriy etish asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma‘lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank va tijorat banklari ma‘lumotlariga hamda boshqa rasman e‘lon qilingan amaliy ma‘lumotlar tahliliga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan tijorat banklarining risklarni baholash va ularning faolligini xizmatlar samaradorligini oshirish jarayonlariga qaratilgan maqsadli rivojlantirish dasturlari hamda ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishda olingan nazariy yondashuvlar, ilgari surilgan takliflar va amaliy tavsiyalar orqali o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarining tijorat banklari faoliyatida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek,

bank faoliyatidagi mavjud risklarni oldini olish va ularni kamaytirishga qaratilgan monitoringni amalga oshirishda qo'llanilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida "Menejment", "Bank ishi", "Risklarni boshqarish" fanlari bo'yicha tegishli ilmiy tadqiqot ishlarida va o'quv jarayonlarida foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklar faoliyatida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "bank risklarini boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini risklarni aniqlash, baholash, tahlil qilish, cheklash va nazorat qilish mexanizmlarining o'zaro uyg'unlashgan majmui sifatidagi bankning moliyaviy barqarorligi va likvidliligini ta'minlash, uning faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning oldini olish yoki ularni minimallashtirish maqsadida amalga oshiriladigan tizimli jarayon nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Davlat moliyasini boshqarish" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 4 oktyabrdagi 892-sonli buyrug'iga asosan). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda bankning moliyaviy barqarorligi va likvidliligini ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning oldini olish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan bank risklarini boshqarish tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

bankning risk-appetit hujjatida tavakkalchilik darajalarini risk-appetitga muvofiqligini tavakkalchilik darajalarini pasaytirishni talab etmaydigan "past daraja" ($0 < RD_p \leq 20$), tavakkalchilik darajalarini pasaytirishni talab etadigan "o'rta daraja" ($21 \leq RD_o \leq 50$), tavakkalchilik darajalarini pasaytirishni talab etadigan "yuqori daraja" ($RD_yu \geq 51$) guruhlari bo'yicha baholash orqali risklarni baholashning aniqligini oshirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yil 18 apreldagi №3427 Boshqaruv qarorining 1-ilovasi Banklar va

banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizomda foydalanilgan (Mikrokreditbank aksiyadorlik-tijorat bankining 2023 yil 26 sentyabrdagi 05-16/17384-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bankning risk-appetit hujjatida tavakkalchilik darajalarini risk-appetitga muvofiqligini turli guruhlar bo'yicha baholash orqali risklarni baholashning aniqligini oshirish imkoni yaratilgan;

bankda mavjud yoki yuzaga kelishi kutilgan tavakkalchiliklar, jumladan kredit, likvidlik, bozor va operatsiya tavakkalchiliklari bo'yicha hamda ularni kamaytirish yuzasidan hisobotlarni Kuzatuv kengashi va tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasiga har chorakda, bank boshqaruviga har oyda kamida bir marta kiritish borasidagi tartibni joriy etish orqali bank faoliyatida xizmatlar sohasidagi jarayonning samaradorligini oshirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023 yil 18 apreldagi №3427 boshqaruv qarorining 1-ilovasi "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizomda foydalanilgan (Mikrokreditbank aksiyadorlik-tijorat bankining 2023 yil 26 sentyabrdagi 05-16/17384-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bankda mavjud yoki yuzaga kelishi kutilgan tavakkalchiliklar yuzasidan hisobotlarni Kuzatuv kengashi va tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasiga kiritish borasidagi tartibni joriy etish orqali bank faoliyatida xizmatlar sohasidagi jarayonning samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

"Agrobank" ATBning asosiy ko'rsatkichlari hamda davlat kreditlari portfeli dasturlari bo'yicha regressiya tahlili asosida bank xizmatlari samaradorligini oshirishning 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "Agrobank" ATB amaliyotida foydalanilgan ("Agrobank" aksiyadorlik-tijorat bankining 2024 yil 5 avgustdagi 04/02-10/434-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Agrobank" ATB bank xizmatlari samaradorligini oshirishda istiqboldagi asosiy faoliyat ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning ilmiy-amaliy natijalari beshta xalqaro hamda oltita respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda keng muhokama qilinib, ilmiy hamjamiyat e'tiboriga havola etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga doir jami 14 ta ilmiy ish bajarilgan bo'lib, ularning 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya qilingan nashrlarda chop etilgan. Mazkur maqolalarning 3 tasi respublika, 2 tasi esa xalqaro ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibiga kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalar kiritilgan bo'lib, umumiy hajmi 146 varaqlarni tashkil etadi.